RUS-YAPON URUSHI VA UNING ROSSIYANING UZOQ SHARQDAGI SIYOSATIGA TA'SIRI

Shomansurova Z.S.
O'Zmu Tarix fakulteti 2-bosqich magistranti.

ANNOTASIYA: Maqolada, XIX-asr va XX-asr boshlarida imperialistik mamlakatlarning Uzoq Sharq hududida manfaatlar toqnashuvi oqibatida vujudga kelgan o'g'ir siyosiy vaziyat haqidadir.

KALIT SO'ZLAR: Nikolay II, imperator, A.N. Kuropatkin, Yaponiya, A. P. Izvolski , Rossiya.

1904-1905yillarda bo'lib o'tgan rus yapon urushi, Rossiya tarixidagi eng mudhish va ahamyatli voqeadir. Rossiyaning uzoq yillik tarixida rus-yapon urushi oqibatida ayanchi yukuni bilan birgalikda, imperator oilasining mavqeiga ham salbiy ta'sir etdi. Bundan tashqari, u mamlakatdagi inqilobiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrdayoq zamondoshlar aynan rus armiyasining Yaponiya bilan bo'lgan urushdagi muvaffaqiyatsizligi inqilobiy halokatlarni kelib chiqishiga xizmat qilgan, degan fikrni bildirgan. A. P. Izvolskiy o'z esdaliklarida "Mazkur tarixiy davrda Rossiya buyuk ichki inqirozni boshdan kechirayotgan edi", deb yozadi. Rus armiyasining Manjuriyadagi harbiy muvaffaqiyatsizliklari natijasi bo'lgan inqilobiy harakatlar umumiy ish tashlashlar bilan yakuniga yetgan. Raqibini qay darajada kuchga ega ekanligini inobatga olmaganligi Rossiya mag'lubiyatining yana bir omillaridan biri edi.

Manjuriya qo'shini qo'mondoni general A.N. Kuropatkin Rossiyaning Yaponiya bilan bo'lgan urushdagi omadsizliklarimizni tahlil qilar ekan, quyidagilarni yozadi: "Shuni ham e'tiborga olish kerakki, 35 yoshdan oshgan qishloq aholisi endi uy ishlari bilan band, ko'pincha ko'p oilalilarni tashkil etar edi. Ularning barcha qiziqish va fikrlari hatto Manjuriyaga kelgandan keyin ham soldat uchun zarur bo'lgan ziyraklik edi. Bu yerda shuningdek, urushning o'zi ham tushunarsiz tuyular, vatanidan chaqiruv o'rniga yaponlar bilan jang qilmasdan, o'z ofiserlarini urishni uqtiruvchi proklamasiyalar yuborilar edi". Ammo Yaponiya iqtisodiy va harbiy jihatdan Rossiyadan kuchsizroq edi. Shunga qaramasdan Angliya Germaniya va AQSh ko'magitda u qisqa vaqt ichida harbiy kuch kudratini tiklashga erishdi. Yaponiya armiyasi 1894-yildan 1904-yilgacha deyarli 2,5 baravar ko'paydi. Shu tariqa Yaponiya hujumni boshlab yubordi. Urush boshida uning 375 ming kishilik armiyasi, 1140 ta qurol va 147 ta pulemyoti bor edi. Podsho xazratlarining mikadosi – Yaponiya imperatorining Rossiya bilan urushning boshlanishi to'g'risidagi manifesti rasman rossiyada 28 yanvarda nashr qilinishining ertasigayoq chiqdi. Yaponiya imperatorlik manifestida quyidagilar haqida so'z borar edi: "Biz Rossiyaga urush e'lon qilmoqdamiz va armiya va qo'shinimizga, barcha qurolli kuchlarimizga ushbu davlatga qarshi dushmanona harakatlarni boshlash, shuningdek, biz barcha tayinlangan hukumat kishilariga xalqaro huquq nomalariga to'g'ri keluvchi vositalarni ishga solgan holda xalqning tilagiga erishtirish uchun barcha kuchlardan foydalanish, vakolatlari bilan birga o'z majburiyatlarini ado etishi to'g'risi haqida buyruq beryapmiz.

Xalqaro munosabatlarda biz har doim sivilizasiyada tinch yo'l bilan erishishiga dalda berishga, boshqa davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga hamda Uzoq Sharqda mustahkam tinchlikni ta'minlovchi bunday chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilib kelganmiz. Shuningdek, biz yerlarimizni xavfsizligini ta'minlash bilan birga bunda boshqa davlatlar manfaatlari va huquqlarini buzmay kelganmiz. Biz tomonimizdan qo'yilgan hukumatlar shu kunga qadar o'z majburiyatlarini bizning xohishlarimizga muvofiq tarzda bajarib keldilar, shunday ekan bizning buyuk davlatlarga bo'lgan munosabatimiz borgan sari samimiy bo'lib bordi. Shunday qilib, bizning xohishlarimizga qaramasdan, baxtga qarshi Rossiyaga qarshi dushmanona harakatlarni boshlashga to'g'ri kelmoqda.

Ushbu urushda Yaponiyaning siyosiy taktikasi shundan iborat ediki Rossiyaning raqiblari bilan ittifoq tushishdan iborat edi. Rossiya imperiyasi Yaponiyaning harbiy salohiyatini etarlicha baholamaslik natijasida urush boshlanishi bilan qurolli kuchlarning sa'y-harakatlari Manchjuriyaga yetkazilmadi. Urushning dastlabki etti oyidan so‘ng, rus qo‘shinlari Liaoyang yaqinida mag‘lubiyatga uchradi. Eng yaxshi bo‘linmalar rus-yapon bo‘limalarga yuborilshga qaramasdan Rossiya g‘alabani boy bergan edi.

1895-yilda Yaponiyada davlatning qurolli kuchlarining tezlashtirilgan rivojlanish dasturi qabul qilindi. 1897 – 1899-yillarda harbiy flot qurilishiga sarflangan harajatlar astronomik o‘lchov kattaligigi darajasiga yetdi – davlat byudjetining uchdan bir qismiga teng bo‘ldi. Imperatorlik hukumati bir necha yillik muddatdayoq, quruqlikdagi qo‘shinlarni uch barobarga, harbiy-dengiz floti qo‘shinlari sonini esa to‘rt barobarga oshirishni rejalashtirdi. Quyosh chiqar davlatning mazkur ikki dasturlardagi vazifalari Rossiya bilan urushning boshlanishiga qadar muvaffaqiyatli hal qilindi. Ayniqsa, Xitoy bilan bo‘lgan urushnig muvaffaqiyatli yakunidan so‘ng tasdiqlangan 1895-yilgi kemalar qurilishi dasturiga ta'asurotli bir voqea sifatida qaraldi. Mazkur dasturga muvofiq, quyidagi sonda xarbiy kemalar qurilishi nazarda tutilgan edi: Angliyada – 4 eskadra zirhli katta harbiy kema; Angliya, Germaniya va Fransiyada – 1 klassdagi 6 zirhli katta harbiy kema kreyserlari; AQShda – 3 yengil kreyseri; Yaponiyaning o‘zida – 3 yengil kreyser; Angliyada– 14 va Yaponiyada 6 ta eskadrali minonosslar (torpedalar bilan qurollangan harbiy kema – Sh. Z); Fransiya va Yaponiyada – 150 tonnalik suv sig‘imiga ega 20 minonoses (torpedalar bilan qurollangan harbiy kema); Germaniya, Fransiyada o‘zlarining kema qurilish korxonalarida 35 75 – 115 tonna suv sig‘imiga ega minonoseslar qurilgan.

Yaponiya singari Rossiya urushga puhta tayyorgarlik ko‘rmagan edi. Vaholanki, imperiyaning harbiy dengiz flotlari yaponlarnikidan ancha ustun bo‘lan. Rossiyaning qo‘mondonlaring oldiga qo‘yilgan vazifasi shulardan iborat edi: Imkon qadar dushmanning hujumini ushlab turish; Peterburgdan zarur zahiralar kelguniga qadar dushmanning muvaffaqiyatga erishishiga yo‘l qo‘ymaslik; Rus qo‘shinlarining mag‘lubiyatga uchrashiga yo‘l qo‘ymaslik edi.

Rossiyaga qarshi kurashda Yaponiyaning harbiy harakatlarga tayyor bo‘lmagan hududlarga barcha kuchlarni jamlashi va mamlakatning butun kuchlarini faqat urushga qaratishi lozim edi. Yaponiya rus qo‘shinlarini aniqlashda xatoga yo‘l qo‘yib, ularni qariyb yarmiga qisqartirdi. Shuningdek, Yaponiyaning harbiy rejasi birinchi navbatda dengizda hukmronlikni qo‘lga kiritishga asoslangan edi. Buning uchun Rossiyaning Port Artur eskadronidan ustun bo‘lgan dengiz kuchlarini to‘plash va urush e'lon qilinishidan oldin unga kutilmagan zarba berish kerak edi. Yaponiya Rossiya portlarining holati va kemalarning joylashuvidan yaxshi xabardor bo‘lib, hal qiluvchi nuqta Port Arturdagi rus eskadroni edi. Gazetalardan biri «Nisi-Nisi», o‘zining birinchi sahifasidayoq, murosasiz urushga chorlovchi «Yovvoyi ordani uring va haydang, bizning bayrog‘imiz Ural cho‘qqilarida xilpirasin», degan shiorni bosib chiqardi. Shu ravishda 1904 – 1905- yillardagi rus-yapon urushi boshlandi.

Umuman olganda, Yaponiya Rossiyaga qarshi urushga puhta reja asosida tayyorgarlk ko‘rgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. С. Рыбаченок. Закат великой державы. Москва. РОССПЭН.2012.

2. Мезенцев Е. Головатенко А. Внешняя политика России на Дальнем Востоке (Конец XIX-начало XX-вв). Москва. Бюро Денди. 1993.

3.Айрапетов О. Внешняя политика Российской империи (1801-1914). Москва. Европа. 2006.

3. Мультатули П. Внешняя политика Императора Нколая II (1894-1917). Москва. ФИВ. 2012.

5.Дятлова А. К. Внешняя политика России на Дальнем Востоке на рубеже XIX-XXвв. В современной англо-американской историографии. Пенза. 2015.

WORDLY
KNOWLEDGE